

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMATOV DILSHOD SOTTORJONOVICH

**MAHALLIY FOSFORIT VA FOSFAT CHIQINDILARINI KISLOTALI
KOMPLEKS QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan – 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора наука (DSc)
Contents of dissertation abstract of doctor sciences (DSc)

Xolmatov Dilshod Sattorjonovich

Mahalliy fosforit va fosfat chiqindilarini kislotali kompleks qayta ishlash
texnologiyalari..... 5

Холматов Дилшод Сатторжонович

Технологии кислотной комплексной переработки местных фосфоритов
сырья и фосфатных отходов..... 29

Xolmatov Dilshod

Technologies of acid complex processing of local phosphorities and
phosphate waste..... 57

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ
List of published works 61

**NAMANGAN MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/29.08.2023.K/T.66.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

XOLMATOV DILSHOD SATTORJONOVICH

**MAHALLIY FOSFORIT VA FOSFAT CHIQINDILARINI KISLOTALI
KOMPLEKS QAYTA ISHLASH TEXNOLOGIYALARI**

02.00.13 – Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Namangan- 2024

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.DSc/T814 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Namangan davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy Kengash veb-sahifasida va «Ziyonet» axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Sultonov Boxodir Elbekovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

To'rayev Zokirjon
texnika fanlari doktori, professor

Erkayev Aktam Ulashevich
texnika fanlari doktori, professor

Alimov Umar Kadirbergenovich
texnika fanlari doktori, kata ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Namangan muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/29.08.2023.K/T.66.02 raqamli Ilmiy kengashining 2025-yil «11» yanvarda soat 11⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 160115, Namangan shahri, Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 228-76-75; faks: (99869) 228-76-71; e-mail: niyei_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Namangan muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (345-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 160115, Namangan sh., Kosonsoy ko'chasi, 7-uy. Tel.: (99869) 228-76-75; faks: (99869) 228-76-71.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «25» dekabr kuni tarqatildi.
(2024-yil «25» dekabrda 19-raqamli reyestr bayonnomasi).




O.K. Ergashev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy Kengash raisi, k.f.d., prof.


D.Sh. Sherqo'ziyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash kotibi, t.f.d., prof.


I.D. Eshmetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
Kengash qoshidagi ilmiy seminar
raisi o'rinbosari, t.f.d., prof.

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda jahonda aholi sonining ortib borishi va qishloq xo'jaligi uchun zarur yer resurslarini yanada kamayib borishi natijasida insonlarni yetarli miqdorda oziq-ovqat bilan ta'minlash muammolari ham ortib bormoqda. Bunday turdagi muammoni hal etishda qishloq xo'jaligi balansida mavjud bo'lgan yerlardan samarali foydalanish muhim vazifalardan biridir. Mavjud bo'lgan yer resurslaridan samarali foydalanishning asosiy yo'llaridan biri bu – qishloq xo'jaligidagi ekinlardan sifatli va mo'l hosil olishda qo'llaniladigan mineral o'g'itlar, jumladan ozuqa komponentlari miqdori yuqori va narxlari arzon bo'lgan oddiy va aralash hamda kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish hisoblanadi. Bu borada, mavjud fosfat xom ashyolari va chiqindilari asosida tarkibida ozuqa komponentlari va o'zlashuvchanligi yuqori bo'lgan hamda tannarxi arzonroq bo'lgan oddiy fosforli, kompleks va aralash o'g'itlar olish va qishloq ho'jaligida foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda tarkibida azot va kaliy tutgan o'g'itlar bilan bir qatorda fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish hajmi va turlarini kengaytirish, ushbu o'g'itlarni olishda mahalliy fosfat xom ashyolari va tarkibida fosfor tutgan sanoat chiqindilarini ishlab chiqarishga ko'proq jalb etish hamda ularni olishning takomillashgan hamda soddalashtirilgan texnologiyalarini yaratish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada fosfor tutgan rudalar va ularni qayta ishlashda hosil bo'ladigan fosfat chiqindilaridan tarkibida fosfor miqdori kam va fosfor miqdori ko'p bo'lgan ekstraksiya fosfat kislotasi olish, fosfat xom ashyolari va fosfor tutgan chiqindilarni nitrat va fosfat kislotalar ishtirokida turli xil o'g'itlarga qayta ishlash; fosforitlarni nitrat kislotasi qayta ishlashda hosil bo'ladigan kalsiy nitratni aylanma eritmalar yordamida ajratish; faollashtirilgan fosforli o'g'itlar olish va undan azotli hamda kaliyli komponentlar asosida aralash o'g'itlar olishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda mahalliy fosforitlarini termik boyitishda hosil bo'ladigan turli xil fosfat chiqindilaridan foydalanib oddiy fosforli hamda azot, fosforli va kaliyli aralash hamda kompleks o'g'itlar ishlab chiqarish yo'nalishlarida ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasida «Mavjud imkoniyatlarni to'liq ishga solgan holda mahalliy sanoat tarmoqlari eksport salohiyatini yanada rivojlantirish - har bir tarmoq kesimida chora-tadbirlar rejasini ishlab chiqish va tasdiqlash, shu jumladan: mineral o'g'itlar va kimyo sanoati mahsulotlari eksportini 400 mln AQSH dollariga yetkazish...»¹ kabi muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada mahalliy fosfat xom ashyolardan foydalangan holda eng muhim qishloq xo'jaligi ekinlari bo'lgan g'oz va boshqali don ekinlarini ekishdan oldin oziqlantirishda muhim bo'lgan ozuqa komponentlari yuqori bo'lgan fosforli va aralash o'g'itlar olishni takomillashgan texnologiyalarini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonni taraqqiyot strategiyasi" to'g'risidagi Farmoni

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi” to‘g‘risidagi, 2023-yil 12-oktyabrdagi PF-169 son “Sanoat va uning bazaviy tarmoqlarini jadal rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2023-yil 15-dekabrda PQ-391-son “Paxtachilikda urug‘chilik tizimini rivojlantirish hamda paxta hosildorligini oshirishning qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2022-yil 1-martdagi 91-sonli O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Mineral o‘g‘itlar xavfsizligi to‘g‘risidagi texnik reglamentni tasdiqlash haqida” gi, 2022-yil 15-dekabrda 753-son “Kimyo sanoati uchun innovasion kimyo ishlab chiqarish va ta‘lim klasterini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror va Farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi². Turli xil FXAlarni klinker usulda qayta ishlash orqali EFK olish, uning asosida esa oddiy va kompleksli fosforli o‘g‘itlar olish bo‘yicha hamda ushbu FXAlardan nitrat va EFK orqali FFO‘lar olish bo‘yicha yo‘naltirilgan ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta‘lim muassasalari, jumladan Florida Industrial and Phosphate Research Institute (AQSh), Engineering Dobersek GmbH (Germaniya), Fertilizer Research Institute (Polsha), The Chemical Society of Japan (Yaponiya), University of Science and Technology (Xitoy), Department of Chemistry (Hindiston), Department of Mining & Metallurgical Engineering (Eron), “FosAgro-Cherepoves” AJ qoshidagi “O‘g‘itlar va insektofungisidlar ilmiy-tadqiqot instituti” AJ (Rossiya), Umumiy va noorganik kimyo institutida (O‘zbekiston) olib borilmoqda.

Turli FXAlardan klinker va boshqa usullarda EFK olish bo‘yicha ishlab chiqish texnologiyalari hamda ularni takomillashtirishga doir jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator, jumladan, quyidagi natijalar olingan: apatit rudasi asosida EFK olishning digidrat usuli ishlab chiqilgan (Florida Industrial and Phosphate Research Institute, AQSh; “FosAgro-Cherepoves” AJ qoshidagi “O‘g‘itlar va insektofungisidlar ilmiy-tadqiqot instituti” AJ, Rossiya); fosforit rudalarini yuqori haroratda (900-1000°C) boyitishdan hosil bo‘lgan fosforit konsentratidan EFK olish usuli yaratilgan (Department of Chemical Engineering, Iordaniya; Engineering Dobersek GmbH, Germaniya); fosfat xom ashyosini nitrat va EFK asosida qayta ishlab turli oddiy va kompleks o‘g‘itlar olish texnologiyasi ishlab chiqilgan (“FosAgro-Cherepoves” AJ qoshidagi “O‘g‘itlar va insektofungisidlar ilmiy-tadqiqot instituti” AJ, Rossiya); fosforitlarni mexanik

² Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy-tadqiqotlar sharhi: <https://www.fipr.state.fl.us>, <https://www.dobersek.com>, <https://www.ichp.pl>, <https://www.csj.jp>, <https://en.ustc.edu.cn>, <https://chem.iitm.ac.in>, <https://dmpe.aut.ac.ir>, <https://www.niuif.ru>, <https://www.ionx.uz> va boshqa manbalar asosida ishlab chiqilgan.

usulda boyitish orqali faollashtirilgan o'g'itlar olish texnologiyasini ilmiy asoslari yaratilgan (University of Science and Technology, Xitoy).

Dunyoda apatit va fosfat xom ashyolarini turli xil usullarda o'g'itlarga qayta ishlash bo'yicha qator, jumladan, quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda, ya'ni fosfat xom ashyosini mineral kislotalar (nitrat, xlorid va fosfat kislotalari) yordamida turli xil o'g'itlarga qayta ishlash usullarini yaratish, turli past navli fosfatlarni EFK olishga jalb etish, past navli va yarim xom ashyoli fosfatlardan klinker usulda EFK olishda aylanma EFKlarda foydalanish, karbonatli fosfat xom ashyosini termik boyitish usulida hosil bo'lgan ikki turdagi fosfat chiqindilarini FFO' va aralash o'g'itlarga qayta ishlashning yangi texnologiyalarini yaratish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Butun dunyoda har xil FXAlardan EFK olish va undan turli xil o'g'itlar, har xil FCHlardan oddiy FFO' va AO'lar olish yo'lidi jahonning yetakchi ilmiy markazlari hamda oliy ta'lim muassasalari, jumladan Florida Industrial and Phosphate Research Institute (AQSH), Engineyering Dobersek GmbH (Germaniya), Fertilizer Research Institute (Polsha), The Chemical Society of Japan (Yaponiya), University of Sciencye and Technology (Xitoy), Department of Chemistry (Hindiston), Department of Mining & Metallurgical Engineyering (Eron), "FosAgro-Cherepovets" AJ qoshidagi "O'g'itlar va insektofungisidlar ilmiy-tadqiqot instituti" AJ (Rossiya), O'zR FA UNKI, Toshkent kimyo texnologiya instituti hamda Namangan davlat universitetida (O'zbekiston) ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Fosfat xom ashyosini qayta ishlab EFK olish texnologiyasi va ularni takomillashtirishga doir jahonda olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi qator natijalar olingan: apatit rudasidan yarim va digidrat usulda EFK olish usuli (Florida Industrial and Phosphate Research Institute, AQSH; "FosAgro-Cherepovets" AJ qoshidagi "Научно-исследовательский институт удобрений и инсектоfungицидов" AJ, Rossiya); shahar suv oqava tizimlarida hosil bo'ladigan fosfatli kukunlardan (shlam) kalsiy fosfatli o'g'itlar olish usuli (Fertilizer Research Institute, Polsha); fosforit rudalarini yuqori haroratda (900-1000°C) boyitib EFK olish uchun asosiy xom ashyo bo'lgan fosfokonsentrat olish usuli (Department of Chemical Engineyering, Iordaniya; Engineyering Dobersek GmbH, Germaniya); FXAlardan mexanik yo'l asosida FFO' olish texnologiyasi (University of Science and Technology, Xitoy); Markaziy Qizilqum (MQ) fosforit unini (FU) sulfat kislota ishtirokida ikki bosqichda ta'sirlashtirib donadorlangan oddiy superfosfat olish texnologiyasi (O'zR FA UNKI) ishlab chiqilgan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti Namangan davlat universiteti Kengashi tomonidan tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot rejalariga muvofiq "Mahalliy xom ashyolar asosidagi noorganik moddalar texnologiyasi" kompleks mavzusi hamda AL-692205622 raqamli "Markaziy Qizilqum fosforitlarini boyitishda hosil bo'ladigan texnogen chiqindilarni qayta ishlash asosida sho'rlangan tuproqlarga qo'llashga mo'ljallangan suyuq azot-kalsiyli o'g'it olish texnologiyasini yaratish"

mavzusidagi bajarilishi 2023-2025 yillarga mo'ljallangan amaliy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi har xil turdagi FXAlaridan klinker usulida EFK va undan fosforli hamda kompleks o'g'itlar olish, fosfat xom ashyolarini termik boyitishda hosil bo'layotgan fosfat chiqindilarini nitrat kislota hamda EFK bilan qayta ishlab FFO' va ular asosida aralash o'g'itlar olishning takomillashgan texnologiyalarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Turli xil MQ FXAlaridan klinker usulida EFK olish jarayonlarini tadqiq etish hamda sulfat kislota me'yori va konsentratsiyalarining ekstraksion fosfat kislota kattaliklariga ta'sirini o'rganish;

fosfat kislotali klinkerdan suv va aylanma eritmalar orqali ekstraksion fosfat kislotani ajratib olish jarayonlari va klinker usulida EFK olishda hosil bo'lgan fosfogipsni (FG) yuvish jarayonlarini takomillashtirish;

klinker usulida olingan EFKni reologik xossalarini o'rganish hamda ushbu EFKni fosforli va kompleks o'g'itlarga qayta ishlash jarayonlarini optimallashtirish;

fosfat xom ashyolarini termik boyitishda hosil bo'layotgan ikki turdagi FCHlari – FK va MMLardan nitrat kislota hamda EFK asosida turli xil tarkibga ega bo'lgan FFO'lar olish jarayonlarini asoslash;

FFO'larning sifat va miqdoriy ko'rsatkichlariga asosiy texnologik kattaliklarning ta'sirini o'rganish hamda FK va MM lar asosidagi FFO', azot va kaliy komponentlari tutgan o'g'itlardan foydalangan holda NP-, PK- va NPK-turidagi AO'lar olish jarayonlarini isbotlash;

tajriba-sinov jihozida EFK, FFO' va NP-, PK- va NPK-turidagi AO'lar olish texnologiyalarini sinovdan o'tkazish va ushbu o'g'itlarning tajriba partiyasini ishlab chiqarish hamda jarayonning asosiy texnologik kattaliklarini aniqlash;

zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida olingan mahsulotlarning (EFK, fosfogips, EFK asosida olingan o'g'it, FK va MM, hamda ular asosidagi FFO') element va tuz tarkiblarini aniqlash;

har xil MQ FXAlaridan EFK olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish, moddiy balansi va iqtisodiy samaradorligini hisoblash, klinker usulida olingan EFKni fosforli va kompleks o'g'itlarga qayta ishlashni texnologik sxemasi, moddiy balansi iqtisodiy samaradorligini hisoblash hamda FCH lardan (FK va MM) FFO' va uning asosida AO'lar (NP-, PK- va NPK-li) olishning soddalashgan texnologiyasini ishlab chiqish, moddiy oqimlarini hisoblash va iqtisodiy jihatdan samaradorligini asoslash.

Tadqiqotning ob'yekti sifatida oddiy fosforit uni (OFU), yuvib quritilgan fosforit konsentrati (YUQFK), yuvib kuydirilgan fosforit konsentrati (YUKFK), mahalliy fosfat chiqindilar – FK va MM, sulfat va nitrat kislotalar, fosfat kislotali klinker, EFK va uning aylanma eritmaları, gazsimon ammiak, kalsiy gidroksid, oddiy fosforli o'g'it, faollashtirilgan fosforli o'g'it, aralash o'g'itlar, fosforli o'g'it suspenziyasi, ammofos va fosfogipslar olingan.

Tadqiqotning predmeti YUKFK, YUQFK, OFU va MM kabi fosfat xom ashyolaridan (FXA) klinker usulida P_2O_5 miqdori yuqoriroq va ftor miqdori kam

bo'lgan EFK olish va undan ozuqa qiymatlari katta bo'lgan oddiy fosforli va kompleks o'g'itlarni olish hamda FCH larini (FK va MM) nitrat kislota bilan ta'sirlashtirish, natijada paydo bo'lgan aralashmani kalsiy gidroksid bilan neytrallagan holda FFO' olish, FK va MM ni EFK bilan ta'sirlashtirib FFO' olish va ular asosida turli xil aralash o'g'itlar olishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya tadqiqot ishini bajarishda kimyoviy (hajmiy kompleksometrik va miqdoriy tahlil) va fizik-kimyoviy (SEM – EVO MA 10 skanerlovchi elektron mikroskop (Zeiss, Germany), element tahlil (Energy-Dispersive x-ray spectrometer (EDS-Oxford Instrument)) va rentgenofazali usul («Panalytical Empyrean» (Niderlandiya), («XRD-6100 SHIMADZU» (Yaponiya))) usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

EFK olish kattaliklariga sulfat kislota me'yorlari va konsentratsiyalari hamda hosil bo'lgan klinkerdan suv va EFKning aylanma eritmaları orqali tarkibida 17,00-26,89% P_2O_5 tutgan EFKni ajratib olish jarayonlarining maqbul kattalıkları aniqlangan;

klinker usulida EFK olishda hosil bo'lgan fosfogipsni yuvish jarayonlarida uning tarkibidagi P_2O_5 miqdorini eng kam qiymatlarga keltirishning maqbul sharoitlari topilgan, sifat va miqdor jihatidan qayta ishlash oson bo'lgan fosfogips olish isbotlangan;

turli xil FXAlardan klinker usulida EFK olish jarayonlarida ftorning fazalararo taqsimoti va FXAlaridan EFK olish jarayonini asosiy maqbul kattalıkları aniqlangan;

FK va MM larni nitrat kislota hamda EFK bilan ta'sirlashtirib, P_2O_5 ning o'zlashuvchan qiymati yuqori bo'lgan FFO'lar olish jarayonlarining maqbul texnologik qiymatlari aniqlangan;

turli omillar (nitrat kislota, EFKlarning konsentratsiyalari va me'yorlari, kalsiy nitrat konsentratsiyasi va miqdori) ta'sirida tarkibida P_2O_5 ning umumiy (18,12-33,15%) va nisbiy o'zlashuvchan miqdorlari (53,42-58,0%) katta qiymatlarga ega bo'lgan FFO'lar olish jarayoni asoslangan;

FFO', azot va kaliy tutgan o'g'itlardan foydalangan holda AO'larni olishda ular tarkibidagi fosforning nisbiy o'zlashuvchan miqdorlarini mos ravishda 53,42 dan 72,74% gacha ko'tarilishi ilmiy asoslangan hamda FFO', azotli va kaliyli komponentlar asosida 11,18-16,94% N, 9,09-17,71% P_2O_5 va 6,78-16,28% K_2O tarkibli aralash o'g'itlar olishning maqbul nisbatlari aniqlangan;

har xil FXAlardan olingan EFK va uning asosidagi o'g'it, FG, FK hamda MM larning mineral va element tarkiblari aniqlangan;

MQ FXAlaridan EFK olish va uning asosida katta miqdordagi ozuqa komponentlariga ega bo'lgan oddiy fosforli va kompleks o'g'itlar hamda MQ FXAlardan YUKFK olishda hosil bo'ladigan FCHlar – FK va MM lar asosida FFO' va AO'lar (NP-, PK- va NPK-li) olishning material oqimlari hisoblangan, iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi asoslangan va takomillashgan texnologik sxemalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Turli xil FXAlaridan klinker usulida P_2O_5 miqdori yuqori va ftor miqdori kam bo'lgan EFK olishning maqbul kattaliklari aniqlangan hamda mahalliy fosfat chiqindilaridan nitrat kislota va EFK asosida FFO'lar olishning maqbul ko'rsatkichlari topilgan va iqtisodiy jihatdan samarali ekanligi asoslangan hamda resurstejamkor texnologiyasi ishlab chiqilgan;

MQ FXAlaridan olingan EFK asosida katta ozuqa komponentlariga ega bo'lgan oddiy fosforli va ammofos o'g'itlar olishda maqbul qiymatlar aniqlangan, FCHlaridan olingan FFO'lar hamda tarkibida azot va kaliy tutgan o'g'itlar asosida NP-, PK- va NPK- turidagi AO'lar olishning asosiy texnologik kattaliklarining maqbul qiymatlari topilgan hamda iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq ekanligi asoslanib va takomillashgan texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Kimyoviy va zamonaviy fizik-kimyoviy tahlil natijalari laboratoriya tajribalari va DDEITI Namangan ilmiy – tajriba stansiyasi, Namangan viloyatida joylashgan fermer xo'jaliklari dala maydonlarida o'tkazilgan agrokimyoviy tajribalar hamda "Ifoda Agro Kimyo Himoya" MCHJ va "Elektrokimyozavodi" QK AJ lardan tajriba partiyalari ishlab chiqarilganligi hamda amaliyotga joriy qilishning istiqbolli rejalarga kiritilganligi to'g'risidagi ma'lumotnomalari bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati har xil turdagi MQ fosfat xom ashyolarini sulfat kislotaning turli xil konsentratsiyalari va me'yorlarida ta'sirlashishi natijasida ushbu fosfat xom ashyolarning parchalanishi qonuniyatlari aniqlanganligi, parchalanishning maqbul kattaliklari topilganligi, klinkerdan EFK ni ajratib olishning texnologik ko'rsatkichlari aniqlanganligi, klinker usulda EFK olish va undan yuqori konsentratsiyali oddiy va kompleks o'g'itlar olish texnologiyalarining yaratilganligi hamda FK va MM larni nitrat kislota va EFK ning har xil konsentratsiya va me'yorlarida ta'sirlashish jarayonlarining umumiy qonuniyatlari ochib berilganligi, ta'sirlashishning maqbul kattaliklari aniqlanganligi, ozuqa komponenti yuqori bo'lgan FFO'lar olinganligi va NP-, PK- hamda NPK-turidagi aralash o'g'itlar ishlab chiqarishning soddalashgan texnologiyalarini yaratishga asos bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundan iboratki, har xil turdagi MQ FXA laridan klinker usulida EFK olinganligi, ushbu usulda olingan EFK dan yuqori konsentratsiyali va samarador oddiy hamda kompleks o'g'itlar olishning resurs tejamkor texnologiyalarini ishlab chiqishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, mahalliy fosfat chiqindilari bo'lgan FK va MM larni nitrat kislota va EFK bilan parchalab, fosfor isrof bo'lishini kamaytirish maqsadida olingan aralashmani kalsiy gidroksid bilan neytrallashtirish orqali FFO'lar olish hamda ammoniy nitrat va KCl dan foydalangan holda ozuqa komponentlari miqdori katta bo'lgan AO'lar (NP-, PK- va NPK-li) olishning soddalashgan texnologiyalarini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Har xil turdagi FXAlaridan klinker usulida EFK va undan fosforli hamda kompleks o'g'itlar olish, fosfat xom ashyolarini termik boyitishda hosil bo'ladigan fosfat chiqindilarini nitrat kislota

hamda EFK bilan qayta ishlab FFO' va ular asosida aralash o'g'itlar olishning takomillashgan texnologiyalarini ishlab chiqish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mahalliy fosfat chiqindilari – FK va MM lardan olingan FFO', ammoniy nitrat va kaliy xlorid asosidagi aralash o'g'itlar olish texnologiyasi "Ifoda Agro Kimyo Himoya" MCHJ QK ning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati" ga kiritilgan ("Ifoda Agro Kimyo Himoya" MCHJ QK 2024 yil 28 avgustdagi 01/127-son ma'lumotnomasi). Natijada, ozuqa komponentlari va $P_2O_{5\text{umum}}$ ning o'zlashuvchanligi yuqori bo'lgan aralash o'g'itlar olish imkonini beradi;

mahalliy FCh lari – FK va MM larni nitrat kislota bilan qayta ishlash natijasida FFO'-18 va FFO'-22 turidagi o'g'itlar olish texnologiyasi "Elektrokimyozavodi" QK AJning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati" ga kiritilgan ("Elektrokimyozavodi" QK AJ 2024 yil 23 avgustdagi 01/142-son ma'lumotnomasi). Bunda nitrat kislota sarfi 10-15% ga va kalsiy gidroksidni 10-12% ga tejalishi, FCh chiqindisi to'liq o'g'it holiga keltirilishi hamda tannarxini 10-78% gacha arzon bo'lish imkonini beradi;

mahalliy FCh lari – FK va MM larni EFK bilan ta'sirlashtirish natijasida olingan FFO'-31 va FFO'-33 turidagi o'g'itlar olish texnologiyasi "Elektrokimyozavodi" QK AJning "2025-2026 yillarda amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxati" ga kiritilgan ("Elektrokimyozavodi" QK AJ 2024 yil 23 avgustdagi 01/142-son ma'lumotnomasi). Bunda EFK sarfi 12-16% ga tejash imkoniyati borligi, FCh lari bo'lgan FK va MM to'liq holda o'g'itga aylantirilish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro va 14 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 32 ta ilmiy ishlar chop etilgan. Jumladan, dissertatsiyaning (DSc) asosiy ilmiy natijalari 14 ta ilmiy maqola, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasi tomonidan chop etishga tavsiya etilgan respublika jurnallarida 9 ta va xorijiy jurnallarda 5 ta chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, olti bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, shartli belgi va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 211 betni tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan, tadqiqotning ob'ekti va mavzusi tavsiflangan, tadqiqotning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, natijalarning amaliyotga joriy etilishi berilgan, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “Fosfat xomashyolaridan ekstratsion fosfat kislota va har hil o‘g‘itlar olish yo‘llari” deb nomlangan birinchi bobida fosfat xom-ashyolarini turlari, fosfat chiqindilari va ularning tavsifi, fosforitlardan ekstratsion fosfat kislota olish, uni fosforli va kompleks o‘g‘itlarga qayta ishlash usullari, fosfat xom ashyolari va fosfat chiqindilarni nitrat va ekstratsion fosfat kislotalar yordamida oddiy fosforli va aralash hamda kompleks o‘g‘itlarga qayta ishlash usullari keltirilgan va tanqidiy tahlil qilingan. Ushbu tahlil bo‘yicha xulosalar keltirilgan. Ilmiy materialni tahlil qilish asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari shakllantirilgan.


Dissertatsiyaning **“Turli fosfat xomashyolarini klinker usulida ekstratsion fosfat kislota qayta ishlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida turli xil fosfat xom ashyolaridan sulfat kislota yordamida ekstratsion fosfat kislota olishda sulfat kislota me‘yori va konsentrasiyalarini ta‘siri, fosfat kislotali klinkerdan suv va aylanma eritmalar orqali ekstratsion fosfat kislota ajratib olish jarayonlari, fosfogipsni yuvish jarayonlarini o‘rganish, turli fosforit xom-ashyolaridan ekstratsion fosfat kislota olish, laboratoriya model uskunasi ekstratsion fosfat kislota olish jarayoni kattaliklarini tadqiq etish, klinker usulda ekstratsion fosfat kislota olishni material oqimi va texnologik sxemasi, fosforitlardan klinker usulda ekstratsion fosfat kislota ishlab chiqarishni iqtisodiy samaradorligi keltirilgan.

Tajribalarni avvalida sulfat kislota me‘yorlari: 95, 100, 103, 105 va 110% (Fosforit xom ashyosidagi CaO ga nisbatan) deb olindi. Sulfat kislota konsentrasiyalari esa: 70, 75, 80, 85, 90 va 93%. Parchalanish vaqti 30 daqiqa. Hosil bo‘lgan klinker 250-300°C da quritildi va olingan klinkerdan fosfat kislota qaynoq (80-90°C) 10% EFK bilan FXA:10% EFK=1,0:2,5 nisbatda 5-10 daqiqa davomida aralashtirildi va vakuum ostida filtrlab ajratib olindi. OFU ni yuqori konsentratyali sulfat kislota bilan parchalanishi tufayli katta hajmdagi ko‘piklar hosil bo‘lishi kuzatilmadi. OFU ni parchalanish koeffitsiyenti ($K_{parch.}$), P_2O_5 ni eritmaga o‘tish unumi ($K_{unum.}$) va fosfat kislotali gipsli suspenziyalarni filtrlanish tezliklari hisoblandi. Olingan natijalar 1-jadvalda keltirilgan. Bu jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, hosil bo‘lgan klinkerdan fosfat kislota 10%-EFK bilan ajratib olinganda hosil bo‘ladigan EFKdagi P_2O_5 ning miqdorlari suv bilan ajratib olinganga nisbatan ancha yuqori. Sulfat kislota konsentratyasi 93% bo‘lganda va me‘yorlari 95 dan 110% gacha ortganda hamda kislota me‘yori 103% bo‘lganda va konsentratyasi 70 dan 93% gacha ortganda EFK tarkibidagi P_2O_5 miqdorlarini va $K_{parch.}$ ni ham ortishi kuzatiladi. Bundan tashqari kislota me‘yori ortganda fosfat kislotali-gipsli suspenziyalarni filtrlanish tezliklarini ortishi ham kuzatiladi. Ammo kislota konsentratyasi ortganda esa ushbu tezlikning kamayishi kuzatiladi. Bu yerda sulfat kislota 103-105% li me‘yorlarini va 90-93%-li konsentratyalarini maqbul kattaliklar deb hisoblash mumkin. Maqbul kattaliklarda olingan EFK tarkibida 17,11-17,35% P_2O_5 bo‘ladi. Bunda filtrlanish tezligi nam fosfogips bo‘yicha 1207 dan 1285 kg/m²·s gacha bo‘ladi. EFK tarkibidagi P_2O_5 miqdori va filtrlanish tezligi bo‘yicha ham ushbu kattaliklar hozirgi ishlab chiqarish talablariga to‘liq javob beradi.

Olingan EFK va fosfogipsning asosiy kimyoviy tarkibiga kislota me'yori va konsentrasiyalarini ta'siri

N _{H2SO4} , %	C _{H2SO4} , %	Moddalarni miqdori, %							K _{parch.} , %	K _{unum.} , %	Filtrlanish tezligi, kg/m ² ·s
		EFK			Quruq fosfogips						
		P ₂ O ₅	CaO	SO ₃	P ₂ O ₅ umum.	P ₂ O ₅ suv.	CaO	SO ₃			
95	93	16,25	0,35	3,32	2,58	0,26	29,78	42,45	94,01	93,02	1105
100		16,79	0,32	3,38	2,54	0,24	29,82	42,39	94,96	93,34	1164
103		17,22	0,31	3,46	2,50	0,22	29,87	42,35	95,71	93,71	1207
105		17,35	0,29	3,53	2,47	0,20	29,90	42,31	95,98	93,85	1285
110		17,41	0,28	3,61	2,44	0,19	29,94	42,27	96,05	94,02	1318
103	70	16,02	0,32	3,23	2,32	0,17	29,49	42,01	94,06	93,03	1436
	75	16,21	0,35	3,28	2,36	0,19	29,57	42,09	94,25	93,05	1398
	80	16,42	0,37	3,34	2,41	0,20	29,68	42,18	94,39	93,25	1357
	85	16,70	0,39	3,37	2,44	0,21	29,75	42,24	95,01	93,59	1289
	90	17,11	0,42	3,42	2,48	0,22	29,83	42,29	95,58	93,67	1256
	93	17,22	0,31	3,46	2,50	0,22	29,87	42,35	95,71	93,71	1207

Yuqoridagi laboratoriya tajribalarini natijalaridan shuni ta'kidlash lozimki, oddiy fosforit unidan to'g'ridan-to'g'ri EFK olish imkoniyatini mavjudligidir. Keyingi tadqiqotlarda OFU asosida klinker usulda olinadigan EFKning konsentrasiyasiga suv va aylanma EFK konsentrasiyalarini ta'siri o'rganildi. Bunda sulfat kislotaning konsentrasiyasi 93% ga, uning me'yorlari esa 100; 103 va 105% deb olindi. Fosfat kislotali va kalsiy sulfatli klinkerdan EFK ni ajratib olish uchun ishlatiladigan suv hamda aylanma EFKlarning miqdorlari OFUga nisbatan 2,5:1,0 deb olindi. Olingan natijalar 1-rasmdagi grafikda keltirilgan.



1-rasm. Aylanma EFK eritmasi konsentrasiyalarini mahsulot EFK konsentrasiyasiga ta'siri

Ma'lumki fosforitlardan EFK olishda fosfogipslar (FG) ham hosil bo'ladi. Ushbu usulda hosil bo'lgan fosfogips tarkibida 2,50-2,74% $P_2O_{5\text{umum.}}$, 29,80-30,04% CaO va 40,30-42,70% SO_3 bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, olingan fosfogips tarkibida ko'p miqdorda $P_2O_{5\text{umum.}}$ qolib ketadi. Keyingi tadqiqotlarda ushbu miqdorlarni minimal darajaga keltirish bo'yicha laboratoriya tajribalari olib borildi. Olingan fosfogips namunalari bir marta suv bilan OFU:H₂O=1,0:(0,5-2,5) nisbatda aralastirildi va filtrlandi. Olingan natijalar 2-jadvalda keltirilgan.


2-jadval

Suv bilan bir marta yuvishda hosil bo'ladigan fosfogips namunalari asosiy kimyoviy tarkiblari

FG tarkibi, %	N _{H2SO4} , %	OFU:H ₂ O= 1,0:2,5 da aralastirmasdan yuvilganda	Fosfogips aralastirib yuvilganda				
			OFU:H ₂ O nisbatlari				
			1,0:0,5	1,0:1,0	1,0:1,5	1,0:2,0	1,0:2,5
P ₂ O ₅	100	2,63	1,01	0,82	0,70	0,66	0,61
	103	2,55	0,92	0,75	0,65	0,62	0,57
	105	2,52	0,80	0,69	0,61	0,55	0,52
CaO	100	29,85	30,41	30,54	30,60	30,73	31,05
	103	29,90	30,34	30,51	30,64	30,70	30,98
	105	29,93	30,28	30,44	30,67	30,68	30,93
SO ₃	100	42,50	43,44	43,63	43,71	43,90	44,36
	103	42,45	43,35	43,58	43,77	43,86	44,26
	105	42,40	43,25	43,49	43,81	43,83	44,19

2-jadvalda keltirilgan natijalardan ko'rinib turibdiki, OFU:H₂O=1,0:2,5 bo'lganda va fosfogips aralastirmasdan yuvilganda fosfogips tarkibidagi P₂O₅ miqdori 2,63% ga, CaO va SO₃ larning qiymatlari esa mos ravishda 29,85% va 42,50% ga teng bo'ladi (kislota me'yori 100% bo'lganda). Kislota me'yori 103 va 105% bo'lganda esa P₂O₅ miqdori mos ravishda 2,55 va 2,52% ga, CaO esa mos ravishda 29,90 va 29,93% ga va SO₃ ning miqdori esa mos ravishda 42,45 va 42,40% ga teng bo'ladi. Hosil bo'lgan fosfogips suv bilan aralastirib yuvilganda esa fosfogipsni P₂O₅ dan yanada tozalanishi kuzatiladi. Masalan, OFU:H₂O nisbati 1,0:0,5 bo'lganda va kislota me'yori 100% da P₂O₅ miqdori 1,01%, CaO 30,41% va SO₃ ning miqdori esa 43,44% ga teng bo'ladi. Sulfat kislotaning 103 va 105% me'yorlarida ham xuddi shunga o'xshash holatlar kuzatiladi. OFU:H₂O nisbatini qiymati kamaygan sari, ya'ni suvning miqdori ortishi tufayli fosfogips tarkibidagi P₂O₅ miqdorini sezilarli darajada kamayishi va fosfogipsning tozaligi, ya'ni undagi CaO va SO₃ larni qiymatlarini ham bir oz ortishi kuzatiladi. Masalan, sulfat kislota me'yori 100% da OFU:H₂O nisbati 1,0:0,5 dan 1,0:2,5 gacha ortganda P₂O₅ ni miqdori 1,01 dan 0,61% gacha kamayadi, CaO va SO₃ larning qiymatlari esa mos ravishda 30,41dan 31,05% gacha va 43,44 dan 44,36% gacha ortishi kuzatiladi. Kislota me'yori 103% bo'lganda esa fosfogips tarkibidagi P₂O₅ miqdori 0,92 dan 0,57% gacha kamayadi, CaO va SO₃ larning qiymatlari esa mos ravishda 30,34 dan 30,98% gacha va 43,35 dan 44,26% gacha ortishi kuzatiladi. Sulfat kislotani me'yori 105% bo'lganda esa yuqoridagi keltirilgan moddalarni miqdorlari mos ravishda 0,80 dan 0,52% gacha kamayishi, 30,28 dan 30,93% gacha va 43,25 dan


44,19% gacha ortishi kuzatiladi. Ushbu yuqorida keltirilgan qiymatlardan shuni ko‘rish mumkinki, fosfogipsni suv bilan aralastirib yuvilganda unda qolib ketadigan P_2O_5 ning miqdori kamida 2,6 marta kamayadi. Fosfogipsning tozalik darajasi 91,38 dan 93,40% gacha ortishi kuzatiladi. Yuqorida keltirilgan muhokamalardan shunday xulosa qilish mumkin: fosfogips namunalari tarkibidagi P_2O_5 miqdorini maksimal darajada kamaytirish uchun fosfogips namunalari suv bilan aralastirilgan holda yuvilishi maqsadga muvofiq va bunda OFU:H₂O ni nisbati 1,0:1,0 ni maqbul nisbat deb olish kerak. Ushbu nisbatdan kichik, ya’ni suv kam bo‘lganda fosfogips namunalari yuvishda qiyinchiligi paydo bo‘ladi va suv ko‘p bo‘lganda esa suv sarfi ko‘payadi hamda EFK dagi P_2O_5 miqdori kam bo‘lgan eritmalar paydo bo‘ladi. Maqbul nisbatda yuvilgan fosfogipsni keyingi qayta ishlash jarayonlarida qo‘llash imkoniyati yuqori bo‘ladi. 2-rasmda MM asosida olingan EFK tarkibidagi P_2O_5 ning miqdoriga bir vaqtning o‘zida sulfat kislota me’yori va konsentrsiyalari hamda ajratib olishda ishlatiladigan aylanma EFK konsentrsiyalarini ta’siri keltirilgan.



2-rasm. EFK tarkibidagi P_2O_5 ning miqdoriga sulfat kislota me’yori va konsentrsiyasi hamda aylanma EFK eritmasini konsentrsiyasini ta’siri: 3-1-10%-li EFK; 2-12%-li EFK va 3-15%-li EFK.

Keltirilgan natijalardan ko‘rinib turibdiki, olingan EFK tarkibidagi P_2O_5 ning miqdoriga sulfat kislota konsentrsiyasi va ajratib olishda qo‘llaniladigan aylanma EFK konsentrsiyasi sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi.


Keyingi tadqiqotlarda esa aylanma EFK bilan YUKFK asosida olingan EFKdagi P_2O_5 ning miqdorlariga sulfat kislota me’yori va konsentrsiyalarini ta’siri o‘rganildi va olingan natijalar 3-rasmda keltirilgan.



3-rasm. YUKFK asosida olingan EFKdagi P_2O_5 ning miqdorlariga sulfat kislota me’yori (a) va konsentrsiyalarini (b) ta’siri. 1- YUKFK: 10%-li EFK=1,0:2,5 va 2- YUKFK: 10%-li EFK =1,0:3,0.

Yuqoridagi o‘tkazilgan laboratoriya tadqiqotlari asosida turli xil MQ fosfat xom ashyolaridan (MM, OFU va YUKFK) klinker usulda ekstraksiyon fosfat kislotasi (EFK) olish jarayonlarining material oqimi hisoblandi va prinsipial texnologik tizimi taklif etildi (4-rasm).

Turli xil fosfat xom ashyolaridan sulfat kislotasi yordamida klinker usulda EFK olishning asosiy mohiyati shundan iboratki, maydalangan minerallashtirilgan massa yoki boshqa turdagi fosforit xom ashyosi uning tarkibidagi CaO miqdoriga nisbatan 90-93%-li sulfat kislotasi eritmasi bilan parchalash; olingan sulfatfosfat kislotali aralashmani 250-300°C da quritish; hosil bo‘lgan quruq aralashmadan EFK ning aylanma eritmasi orqali EFKni ajratib olish; nam fosfogipsni aylanma EFK eritmasi bilan aralastirilgan holda filtrlash.



4-rasm. Turli xil fosforit xom ashyolaridan klinker usulda ekstraksiyon fosfat kislotasi olishning prinsipial texnologik sxemasi.


1-sulfat kislotasi saqlash idishi; 2-fosfat xom ashyosi bunkeri; 3- vaznli qo‘shuvchi tarozi; 4-kislotali nasos; 5-sulfat kislotasi uchun vaznli o‘lchagich; 6- fosforitlarni parchalash uchun shnekli reaktor; 7-barabanli quritgich; 8-absorber; 9,9¹-aralastirgichlar; 10-botirilgan nasoslar; 11,11¹- lentali vakuum filtrlar.

Keyingi ishlarda esa Markaziy Qizilqum fosforitlarini yuqori haroratda boyitish texnologiyasini chiqindisi bo‘lgan MM va boyitish mahsuloti bo‘lgan YuKFK, YuQFK hamda OFU larni har bir tonnasidan klinker usulda olingan ekstraksiyon fosfat kislotasi olishning iqtisodiy samaradorligi hisoblandi. MM, OFU, YuKFK va YuQFK lardan olingan 1 tonna EFK larning tannaxlari Olmaliq Ammofos-Maxam korxonasi ishlab chiqarilayotgan 1 tonna 18% li EFK ga nisbatan mos ravishda 17 208; 53 244; 43 267 va 75 444 so‘mga arzon.


Dissertatsiyaning **“Klinker usulda olingan ekstraksiyon fosfat kislotadan oddiy va kompleks o‘g‘itlar olish jarayonlari”** deb nomlangan uchinchi bobida past sifatli MQ fosforitlarini yuqori haroratda boyitish texnologiyasini saralash bosqichida hosil bo‘ladigan fosfat chiqindisi bo‘lgan MM va boyitish mahsuloti bo‘lgan YuKFK, YuQFK hamda OFU lardan sulfat kislotasi yordamida klinker usulda olingan EFKlarning reologik xossalari o‘rganilgan, turli xil fosfat xom ashyolardan (FXA) olingan EFK namunalaridan oddiy fosforli o‘g‘it-o‘g‘itli

presipitat va kompleks o'g'it-ammofos olish jarayonlari o'rganilgan, o'g'itlar olishni material oqimi va texnologik sxemasi hamda texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlari keltirilgan. Har xil FXA lardan olingan EFK asosida oddiy va kompleks o'g'itlar olishda ularning konsentrsiyalari va reologik xossalari muhim rol o'ynaydi. Shuning uchun keyingi tadqiqotlarda EFKlarda P_2O_5 ning konsentrsiyalarini ortib borishida ularning reologik (qovushqoqligi va zichligi) o'rganildi. Chunki bunday turdagi EFKlarni olish jarayonlarini avtomatlashtirish, nazorat qilish va hosil bo'lgan EFK boshqa bir uskunadan yana bir boshqa uskunaga o'tkazish zarurati paydo bo'ladi.

MM asosida olingan EFKlardagi P_2O_5 konsentrsiyalarini ortishi va turli haroratlarda uning zichligini o'zgarishi 6-rasmda keltirilgan. Bunda zichlikni o'zgarishi harorat 20-80°C oralig'ida o'rganildi. 20°C haroratda EFK dagi P_2O_5 konsentrsiyalari 15,60 dan 35,60% gacha ortganda uning zichligi sezilarli darajada ortishi, ya'ni 1,12 dan 1,46 g/sm³ gacha (1,3 barobar) ortishi kuzatiladi (5-rasm). Xuddi shunga o'xshash qonuniyatlar boshqa haroratlarda ham takrorlanadi. Haroratni 20 dan 80°C gacha ortishida barcha konsentrsiyali EFKlarning zichligini biroz kamayishi kuzatiladi.



5-rasm. MM asosida olingan EFKdagi P_2O_5 konsentrsiyalarini ortishi va turli haroratlarda uning zichligini o'zgarishi



6-rasm. MM asosida olingan EFKdagi P_2O_5 konsentrsiyalarini ortishi va turli haroratlarda uning qovushqoqligini o'zgarishi

Masalan, 18,10% li EFK da uning zichligini 1,19 dan 1,09 g/sm³ gacha (1,09 marta) kamayishini ko'rish mumkin. 6-rasmdagi ma'lumotlardan esa ushbu EFK namunalaridagi P_2O_5 konsentrsiyalarini ortishida uning qovushqoqliklarini yetarli darajada ortishini ko'rish mumkin. Masalan, harorat 20°C da 15,60% li EFK da qovushqoqlik 5,04 sPz ga teng bo'lsa, 35,60% li EFK da qovushqoqlik esa 14,05 sPz ga teng, ya'ni 2,79 marta ortadi. Bunda qovushqoqlikni ortishini eritmadagi tuzlar massasini ortishi va suv ulushini kamayishi bilan tushuntirish mumkin.

OFU hamda YUKFKlar asosida olingan EFKlardagi P_2O_5 konsentrsiyalarini ortishi va turli haroratlarda uning zichligi va qovushqoqliklarini o'zgarishini o'rganishdan olingan natijalarda ham MM asosida olingan EFK namunalarida keltirilgan umumiy qonuniyatlar kuzatiladi.

Keying tadqiqotlarda OFU asosida klinker usulda olingan EFK dan oddiy fosforli o'g'it – o'g'itli presipitat olish o'rganildi. Olingan natijalar 3-jadvalda keltirilgan. Ushbu olingan natijalardan ko'rinib turibdiki, cho'ktiruvchini me'yorini ortishi olingan o'g'itli presipitat namunalarini sifatiga sezilarli darajada

